

СЕКЦИЯ 1. Актуальные проблемы информационных технологий и автоматизации

Ва ижодий равишда:

- мустақил равишда ўқувчиларнинг ўқув фаолияти билан боғлиқ вазиятлар, факт ва объектларни таҳлил қилиш, баҳолашнинг мезон ва параметрларини белгилашни;
- мустақил белгиланган мезонлар бўйича ўқув фаолият билан боғлиқ вазиятлар, объект ва ходисаларни классификациялашни;
- ўқувчилар ўқув фаолиятини ривожлантиришнинг шахсга йўналтирилган методикаларга асосланган сценарийсини тузишни;
- мустақил белгиланган мезонларга кўра ўқувчилар ўқув фаолиятининг ҳолатини белгилашни;
- интерфаолликни таъминлашга қаратилган турли методикаларнинг афзалликларини, камчиликларини, чегараларини ажрата олишни;
- мустақил равишда мавзу бўйича тегишли ахборотни топиш ва ундан фойдаланишни **бажара олишингиз керак**.

Масофавий курс мақсадларини юқорида келтирилган талаблар асосида белгиланиши ва мақсадларни кўрсатилган ўзлаштириш даражалари кесимида ифодаланиши, курс материалларининг мазмунини яратиш, унинг таркиби ва даражасини белгилаш учун асос бўлади.

Фойдаланилган адабиётлар

1. Полат Е.С. Дистанционное обучение. Учебное пособие для вузов. //М. 1998.
2. Абдуқодиров А., Пардаев А. Масофадан ўқитиш назарияси ва амалиёти. Монография. – Т.: “Фан”, 2009. – 145 б.
3. Яхьяев М.С., Қодиров Т., Эгамов Х. Масофавий курс: умумий характеристика, моҳият ва таркиб. // Ж. Халқ таълими, 2008, октябр.

О’QUVCHILARNI OLIMPIADALARGA TAYYORLASHDA IJODIY MASALANING ROLI

¹G.N. G’oyibnazarova, ²N. Toshmurotova

¹*Toshket shahridagi Belarus- O’zbekiston qo’shma tarmoqlararo amaliy texnik kvalifikatsiyalar instetuti,* ²*Jizzax davlat pedagogika universiteti*

О’қув-тарбия jarayonida о’қувчиларнинг mustaqil faoliyatiga keng о’rin beriladi. Shu sababli matematikani о’qitish jarayonini tashkil etishda о’қувчиларнинг о’rganish motivatsiyasini shakllantirishni ularning о’quv predmetiga qiziqishlari asosida amalga oshiriladi. Bu kursning о’quv materiallari о’rganiladigan mavzularni tushuntirish, tadqiq qilish va ijodiy fikrlash darajasida qiziqtirish imkoniyatiga ega.

Matematikani о’rganishda о’қувчиларнинг bilish faoliyati ularning о’rganish faolligini oshirish orqali tashkil etiladi. Bunda о’qituvchi ularning

СЕКЦИЯ 1. Актуальные проблемы информационных технологий и автоматизации

mustaqil o'quv faoliyatini boshqarib boradi. O'qituvchi-o'quvchi, o'quvchi-o'quvchi, o'quvchi-sinf, o'qituvchi-sinf munosabatlarida o'qituvchi yetakchi pozitsiyani egallab turishi lozim.

O'qitish jarayoni o'quvchilarning barcha turdagi masalalarni yechishlarini nazorat qilish yo'li bilan boshqariladi [3].

O'qitish metodlarini takomillashtirishning asosiy maqsadi- o'quvchilar ijodiy faoliyatini kengaytirish, ularda bilimlarni ongli ravishda o'zlashtirishga bo'lgan intilishni rivojlantirish va ularning turli shakldagi ijodiy masalalarni yecha olishlarini kuchaytirishdan iborat. O'quvchilarning o'qish va o'rganish borasidagi faolligi ularning o'qituvchi ma'ruzasi yoki og'zaki bayonini diqqat bilan tinglash, teoramlarni isbotlash jarayoniga e'tibor qaratish, mashq va masalalar yechish, darslikdan tegishli o'quv materialini o'qish, konspektlar yozish, uy vazifalarini bajarish, turli shakl va mazmundagi darsdan tashqari ishlardagi ishtiroki kabilar bilan belgilanadi. O'quv faoliyati, ayniqsa, amaliy mashg'ulotlarni bajarishda namoyon bo'ladi. Hisoblashga doir va isbotlashga doir masalalarni yechish, turli xarakterdagi test topshiriqlarini bajarish, test topshiriqlari yoki boshqa shakllardagi nazorat ishlarida qatnashish ham mustaqil ishlash va fikrlashning yuqori darajali ko'rinishlaridir. Sanab o'tilgan faoliyat turlarining aksariyatida o'quvchilarning faoliyati va olgan bilimlari hamda egallagan uquv, ko'nikma va malakalariga baho berish mumkin bo'lib, bu jarayonlar dinamikasini nazorat qilishni ham o'z ichiga oladi.

«Masala» tushunchasi ko'p qirralidir. Psixologik adabiyotlarda bu tushuncha har xil talqin qilinadi. G.Ball [1] «masala» atamasi psixologik va pedagogik adabiyotlarda uchta har xil toifalarga taalluqli bo'lgan ob'ektlarni belgilash uchun ishlatiladi, deb fikr bildiradi. Bu toifalar quyidagilar:

-subyektning harakat maqsadi, subyekt oldiga qo'yilgan talablar kategoriyasi;

-maqsad bilan birgalikda, u erishilishi zarur bo'lgan sharoitlar holati kategoriyasi;

-bu holatni og'zaki ifodalash toifalari.

Psixologik adabiyotlardagi «masala» tushunchasiga har xil zamonaviy yondashuvlarni bu tushunchaning qaysi tizimga tatbiq etilishiga qarab, ikki guruhga ajratish mumkin.

Birinchi guruh vakillari masalani tashqi faoliyat holati sifatida qabul qiladi va uni bu faoliyatni ro'yobga chiqaruvchi subyektidan ajralgan holda tashkil qilish mumkin, deb hisoblaydi, ya'ni masala subyekt faolligini harakatga keltiruvchi omil sifatida talqin qilinadi. Bunday ta'riflar didaktika, metodikada berilgan. Ikkinchi guruh vakillari psixologik mazmun kiritib, masalani ma'lum shartlarda berilgan maqsad, subyekt faoliyatining muhim tavsifnomasi deb tahriflaydi.

СЕКЦИЯ 1. Актуальные проблемы информационных технологий и автоматизации

Masalalar umumiy nazariyasiga L.M.Fridman, G.A.Ball [1] kabi olimlarning tadqiqotlari salmoqli hissa qo'shdi. L.M.Fridman masala deganda, uni bajarish bo'yicha harakatlar ko'rsatilmagan, lekin shartida zaruriy o'ziga xos axborotlar mavjud bo'lgan biror topshiriqni topishni tushuntirishni taklif qiladi. G.A.Ball masalalar tuzilishini, uning subyekt faoliyati, chunonchi, o'quv-tarbiyaviy jarayonda amalga oshiriladigan faoliyatidagi o'rnini o'rganib, masalalarning asosiy tiplarini, ularni yechish vositalari va metodlarini tavsiflagan, masalalar nazariyasini, ta'lim jarayonini samarali tashkil qilish, uning rivojlantiruvchi funksiyasini kuchaytirish imkoniyati deb bilgan. U masalaning umumiy majburiy tarkibiy qismlari quyidagilardan iborat deb hisoblaydi:

- masalaning boshlang'ich predmeti;
- masala predmetining talab holati modeli (masala sharti).

Bu ta'rif tizimda boshqa komponentlar qatnashishini inkor etmaydi.

Masalalarning barchasiga xos xususiyat uning bir qiymatli yechilmasligidan iborat, ya'ni bitta masala turli yo'llar bilan yechilishi mumkin.

Murakkab masalalarni yechish uchun avvalo masalani tahlil qilish kerak. O'quvchi masala shartidagi ma'lum kattaliklarni va bu kattaliklar o'zaro qanday bog'langanligini, bu bog'lanishlardan qanday xulosalar qilish mumkinligi va nixoyat nimani topish kerakligini yaqqol anglashi kerak. Bunday tahlil nafaqat mahlum bir yo'nalishdagi xarakterda (berilganlardan nomahlumlarga), balki aksincha, masala yechishga bo'lgan urinish ikki qarama-qarshi yo'nalishda olib borilishi kerak. Geometrik masalalarni yechishda chizma ham muhim ahamiyatga ega. Agar chizma aniq va to'g'ri chizilgan bo'lsa, masala yechishni osonlashtiradi, aksincha noto'g'ri chizma masala yechishni butunlay boshqa yo'ldan olib borishi mumkin. Masalani yechish jarayonida o'quvchilar uni yechish yo'lini to'g'ri tanlashiga, ularning mantiqiy fikrlashini rivojlantirishga e'tibor qaratish kerak.

Xulosa qilib aytganda, o'quvchilarni turli fan olimpiyadalariga tayyorlashda ijodiy masalalar yechish qobiliyatini yanada rivojlantirish muhim o'rin tutadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

- 1.Балл Г.А. О психологическом содержании понятия “задача”. “Вопросы психологии”-Москва, 1970.
- 2.Воронько Г.А. Задача исследовательского характера. Математика в школе.-2004, №8.
- 3.Pilotov A.M. Tahlil jarayoni samaradorligini oshirishda pedagogik innovatsiya // Uzluksiz tahlim. Toshkent, 2003. -№2. -B.21-24.